

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 2888,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 26,9 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1423,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,3 %), qishloq aholisi soni 1465,0 ming kishini (50,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **26,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **43,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **12,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **14,1 mingta nikoh** va **2,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Toshkent viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
43,1 ming bola



**Vafot etganlar**  
12,1 ming kishi


**Aholining umumiyo'sishi**  
26,9  
ming kishi

**Ko'chib kelganlar**  
14,5 ming kishi

Mexanik o'sish  
(kamayish)  
-4,1  
ming kishi


**Ko'chib ketganlar**  
18,6 ming kishi

### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, viloyatga nisbatan ulush)**



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 205,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 196,9 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Ohangaron shahrida 36,8 ming kishi (1,3 %) va Nurafshon shahrida 48,2 ming kishini (1,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Parkent tumanida 1,7 %ni, Bo'ka tumanida 1,6 %ni, O'rtachirchiq va Yangiyo'l tumanlarida 1,5 %ni, Chinoz, Bekobod tumanlari va Nurafshon, Bekobod shahrida 1,4% ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiyo'l shahrida 0,6%ni va Zangiota tumanida 0,8 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 43,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 19,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bo'ka tumanida (20,1 promilledan 23,0 promillega), Yangiyo'l (16,8 promilledan 19,1 promillega), Ohangaron (16,9 promilledan 19,0 promillega) va Nurafshon (13,9 promilledan 16,0 promillega) shaharlarda sezilarli o'sdi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-sentyabr

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>40700</b>	<b>43137</b>	<b>106,0</b>
Nurafshon sh.	494	574	116,2
Olmaliq sh.	1813	1853	102,2
Angren sh.	2677	2641	98,7
Bekobod sh.	1195	1171	98,0
Chirchiq sh.	1592	520	32,7
Ohangaron sh.	459	1770	385,6
Yangiyo'l sh. tumanlar:	744	850	114,2
Oqqo'rg'on	1592	1727	108,5
Ohangaron	1498	1460	97,5
Bekobod	2447	2534	103,6
Bo'stonliq	2067	2257	109,2
Bo'ka	1810	2103	116,2
Quyichirchiq	1574	3049	193,7
Zangiota	2759	2755	99,9
Yuqorichirchiq	1900	1680	88,4
Qibray	2612	2509	96,1
Parkent	2359	1375	58,3
Pskent	1412	2368	167,7
O'rtachirchiq	2286	2123	92,9
Chinoz	2072	2087	100,7
Yangiyo'l	2940	3072	104,5
Toshkent	2398	2659	110,9

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 12,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,6 promille ni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 5,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bekobod tumanida (5,2 promilledan 4,5 promillega), Yangiyo'l (8,2 promilledan 7,7 promillega), Angren (6,1 promilledan 5,7 promillega) shaharlarda va Pskent (5,3 promilledan 4,9 promillega) sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.


### **Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-sentyabr**

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>12036</b>	<b>12097</b>	<b>100,5</b>
Nurafshon sh.	208	202	97,1
Olmaliq sh.	695	682	98,1
Angren sh.	831	791	95,2
Bekobod sh.	401	404	100,7
Chirchiq sh.	882	860	97,5
Ohangaron sh.	196	198	101,0
Yangiyo'l sh. <i>tumanlar:</i>	362	343	94,8
Oqqa'rg'on	347	433	124,8
Ohangaron	366	374	102,2
Bekobod	589	513	87,1
Bo'stonliq	639	616	96,4
Bo'ka	441	434	98,4
Quyichirchiq	473	470	99,4
Zangiota	676	704	104,1
Yuqorichirchiq	606	631	104,1
Qibray	854	857	100,4
Parkent	538	553	102,8
Pskent	388	364	93,8
O'rtaqchirchiq	625	647	103,5
Chinoz	510	538	105,5
Yangiyo'l	731	758	103,7
Toshkent	678	725	106,9

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,8 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 %i o'simtalardan, 8,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 54,6 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 4,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 7,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



2018 yil yanvar-sentyabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 31,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 2,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentybar oylarida 28,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
31,0 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari O'rtachirchiq tumani (105,0 %) va Ohangaron shahrida (101,6 %) to'g'ri kelmoqda.

### Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (126,7 %), Chinoz (125,0 %), Zangiota (118,0 %), tumanlariga va Chirchiq (118,6 %) shahriga to'g'ri kelmoqda.



### **Toshkent viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik yanvar-iyun**



	Tuzilgan nikohlar soni			Nikohdan ajralishlar soni		
	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>15836</b>	<b>14123</b>	<b>89,2</b>	<b>2649</b>	<b>2510</b>	<b>94,8</b>
Nurafshon sh.	201	187	93,0	62	58	93,5
Olmaliq sh.	825	759	92,0	209	149	71,3
Angren sh.	973	803	82,5	208	111	53,4
Bekobod sh.	534	505	94,6	131	125	95,4
Chirchiq sh.	682	650	95,3	215	255	118,6
Ohangaron sh.	189	192	101,6	52	39	75,0
Yangiyo'l sh. tumanlar:	330	291	88,2	90	65	72,2
Oqqo'rg'on	665	537	80,8	107	92	86,0
Ohangaron	464	405	87,3	61	49	80,3
Bekobod	911	817	89,7	129	118	91,5
Bo'stonliq	863	684	79,3	105	133	126,7
Bo'ka	771	725	94,0	83	88	106,0
Quyichirchiq	545	509	93,4	111	125	112,6
Zangiota	998	898	90,0	128	151	118,0
Yuqorichirchiq	834	716	85,9	133	149	112,0
Qibray	946	954	100,8	195	208	106,7
Parkent	897	599	66,8	95	94	98,9
Pskent	529	475	89,8	62	48	77,4
O'rtachirchiq	880	924	105,0	139	116	83,5
Chinoz	758	727	95,9	84	105	125,0
Yangiyo'l	1159	922	79,6	141	123	87,2
Toshkent	882	844	95,7	109	109	100,0

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 14,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 18,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 4,9 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	15,3	14,5
Ko'chib ketganlar	20,2	18,6
Migratsiya saldosi	-4,9	-4,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Zangiota tumanida (minus 1,1 ming kishi), Bo'stonliq va Bekobod tumanlarida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.